

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikatsiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunchilikning rivojlanish marra-lari.....	132
M.Kenjaye-va	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO‘K: 2-67:615.89(091)

DINIY AN‘ANALAR VA XALQ TABOBATINING UZVIY RIVOJI: QADIMDAN ISLOM DAVRIGACHA BO‘LGAN ILMIY-FALSAFIY TAHLIL**НЕРАЗРЫВНОЕ РАЗВИТИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ТРАДИЦИЙ И НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ: НАУЧНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ОТ ДРЕВНОСТИ ДО ИСЛАМСКОГО ПЕРИОДА****THE CONTINUOUS DEVELOPMENT OF RELIGIOUS TRADITIONS AND FOLK MEDICINE: A SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS FROM ANTIQUITY TO THE ISLAMIC PERIOD****Yuldasheva Lola Sagdullayevna** 

Toshkent davlat tibbiyot universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada qadimgi diniy an‘analar va xalq tabobati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Zardushtiylik, buddaviylik, moniylik kabi qadimgi e‘tiqodlarda tabobatning ma‘naviy va axloqiy asoslari, shuningdek, ularning keyingi davrlarda islom tibbiy tafakkuriga ko‘rsatgan ta‘siri yoritiladi. Islom davri olimlarining - Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy, al-Farobiy kabi mutafakkirlarning ilmiy merosida diniy qadriyatlar va tabobat o‘rtasidagi uyg‘unlik tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье проводится научно-философский анализ взаимосвязи между древними религиозными традициями и народной медициной. В зороастризме, буддизме, манихействе и других древних верованиях раскрываются духовно-нравственные основы врачевания, а также их влияние на развитие исламской медицинской мысли. В научном наследии мыслителей исламского периода - Абу Али ибн Сины, Абу Бакра ар-Рази, аль-Фараби и других - рассматривается гармония между религиозными ценностями и медициной.

Abstract

This article presents a scientific and philosophical analysis of the interconnection between ancient religious traditions and folk medicine. It explores the spiritual and moral foundations of healing in Zoroastrianism, Buddhism, and Manichaeism, as well as their influence on the development of Islamic medical thought. The harmony between religious values and medicine is examined through the scholarly heritage of prominent Islamic thinkers such as Abu Ali Ibn Sina, Abu Bakr al-Razi, and al-Farabi.

Kalit so‘zlar: diniy an‘analar, xalq tabobati, zardushtiylik, islom davri, tibbiy tafakkur, ma‘naviy qadriyatlar, inson salomatligi.

Ключевые слова: религиозные традиции, народная медицина, зороастризм, исламский период, медицинская мысль, духовные ценности, здоровье человека.

Key words: religious traditions, folk medicine, Zoroastrianism, Islamic period, medical thought, spiritual values, human health.

KIRISH

Insoniyat tarixining eng qadimiy davrlaridan boshlab, sog‘lom hayot kechirish, kasalliklarni davolash va ruhiy poklikka erishish inson tafakkurining markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Xalq tabobati - bu insonning tabiat bilan uyg‘un yashash tajribasiga, ruhiy va jismoniy muvozanatni saqlashga qaratilgan eng qadimiy amaliy bilimlar tizimidir. Dastlabki diniy e‘tiqodlarda, xususan zardushtiylik, buddaviylik, moniylik kabi ta‘limotlarda sog‘lom tana va pok ruh o‘rtasidagi uyg‘unlik g‘oyasi alohida o‘rin tutgan. Ushbu diniy an‘analar inson salomatligini faqat jismoniy holat sifatida emas, balki ruhiy, axloqiy va ma‘naviy kamolot bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilgan.

Qadimgi Sharq madaniyatida tabobat ilmi diniy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘un rivojlanib borgan. Zardushtiylikda "Avesto" orqali poklik, ezgulik, nur va hayot quvvatini saqlash g‘oyalari targ‘ib etilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda buddaviylikda ruhiy osoyishtalik va aqlning tiniqligi inson salomatligining asosi sifatida talqin etilgan. Shu jarayonda xalq tabobati diniy marosimlar, o‘simliklardan foydalanish, tozalik, ibodat, zikr va duo kabi shakllar bilan uyg‘unlashgan holda shakllanib bordi.

Islom davrining kirib kelishi esa bu sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Qur‘oni karim va hadislarda inson tanasi va ruhi o‘rtasidagi mutanosiblik, poklik, sabr, shifo va Allohning marhamati

bilan bog'liq ko'plab oyat va rivoyatlar mavjud. Buyuk mutafakkir va tabiblar - Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr ar-Roziy, al-Farobiy, Beruniy kabi allomalar tibbiyot va diniy-falsafiy qarashlarni o'zaro uyg'unlashtirib, sog'lom hayotning ma'naviy poydevorini yaratganlar. Ularning asarlarida tabobat faqat kasallikni davolash emas, balki inson ruhiyatini yuksaltirish, hayotning ma'nosini anglashga xizmat qiluvchi oliy qadriyat sifatida talqin etilgan.

Shunday qilib, qadimdan islom davrigacha bo'lgan davr mobaynida diniy an'analar va xalq tabobati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik insonning o'z tanasi, ruhiy olami va atrof-muhit bilan uyg'un hayot kechirish tamoyiliga asoslangan. Ushbu uyg'unlik bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, zamonaviy tibbiyot va psixologiyada insonning ma'naviy holatini inobatga olish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. Zero, sog'lom tana va pok ruh - inson hayotining eng muhim qadriyati, jamiyat taraqqiyotining esa tayanch omilidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Insoniyat tarixining eng qadimiy davrlaridanoq sog'lomlik, ruhiy muvozanat va hayotning uyg'unligi masalalari diniy e'tiqodlar, urf-odatlar va xalq tabobati tizimi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Xalq tabobati nafaqat amaliy davolash usullari majmui, balki ma'naviy, axloqiy va falsafiy qarashlar tizimini o'zida mujassam etgan umumbashariy madaniy hodisadir. Unda inson va tabiat, tana va ruh, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi muvozanatni tiklash g'oyasi markaziy o'rin egallaydi. Shu bois xalq tabobati tarixda nafaqat biologik bilim, balki diniy-axloqiy tajribaning ham uzviy qismi sifatida qaralgan.

Qadimgi zardushtiylik ta'limoti bu jarayonning dastlabki shakllanish bosqichini ifodalaydi. "Avesto" kitobida sog'lomlik - diniy poklik, kasallik esa Anxra-Manyu (Ahriman)ning yovuz kuchlari bilan bog'langan holat sifatida talqin etiladi. Olov, suv, o'simliklar va hayot unsurlari muqaddas sanalib, ularning tozalovchi va shifo beruvchi xususiyatlari e'tirof etilgan. Zardushtiylik davrida tabiblar nafaqat davolovchi, balki ruhiy poklanish va axloqiy muvozanatni saqlovchi diniy arbob sifatida e'tirof etilgan. Shu jihatdan diniy kosmologiya, axloq va tabobat yagona ma'naviy tizimni tashkil etgan.

Milodiy VII asrda islom dinining yoyilishi bilan xalq tabobati yangi falsafiy va ilmiy bosqichga ko'tarildi. Qur'onda "shifo" tushunchasi insonning nafaqat jismoniy, balki ruhiy holati bilan bog'liq tarzda izohlanadi: *"Biz Qur'onda mo'minlar uchun shifo va rahmat bo'lgan oyatlarni nozil qildik"* (Isro surasi, 82-oyat). Payg'ambar hadislarida esa davolanishning tabiiy vositalari - asal, qora sedana (*Nigella sativa*) va hijama (xojamot) kabi usullar tavsiya etilgan. Shu bilan birga, islom tabibning axloqiy mas'uliyatini alohida e'tirof etib, halollik, rahm-shafqat va kamtarlikni shifokorlik fazilatining ajralmas jihati deb belgilagan.

O'rta asrlarda musulmon olimlari - Ibn Sino, Beruniy, Roziy kabi mutafakkirlar qadimgi tibbiy an'analarni islomiy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirib, ilmiy tibbiyotning nazariy va falsafiy asoslarini yaratdilar. Ibn Sinoning "Al-Qonun fi't-tibb" asari ana shu uyg'unlikning eng yuksak namunasi bo'lib, u tibbiyot, falsafa va din o'rtasidagi uzviy aloqani ilmiy asosda yoritgan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - xalq tabobatining qadimgi diniy an'analardan tortib, islom davrigacha bo'lgan shakllanish va takomillashuv jarayonini ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishdir. Tadqiqotda tarixiy, matnii va antropologik yondashuvlar uyg'unlashtirilib, "Avesto", Qur'on, hadislar hamda Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarlari asosida xalq tabobatining uzviy rivoji o'rganiladi. Shuningdek, diniy e'tiqodlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlarning davolash amaliyotiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi.

Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlari orasida saqlanib qolgan xalq tabobati an'analari bugungi kungacha o'z hayotiyligini yo'qotmagan. Bu esa zardushtiylik va islom merosining faqat tarixiy emas, balki madaniy va ma'naviy davomiyligini ko'rsatadi. Shu tariqa, diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji insoniyatning sog'lom, axloqan etuk va ruhiy jihatdan uyg'un jamiyat barpo etish yo'lidagi falsafiy izlanishlarining ifodasidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dunyo sivilizatsiyalari tarixida sog'lomlik, ruhiy muvozanat va tabiat bilan uyg'un yashash g'oyalari diniy e'tiqodlar va xalq tabobati tizimlari orqali shakllanib kelgan. Ana shunday qadimiy yakkaxudolik dinlardan biri - zardushtiylik insoniyatning tibbiy, axloqiy va ma'naviy qarashlari rivojida muhim o'rin tutgan. U Eron madaniyati va Markaziy Osiyo xalqlari tafakkurida xalq tabobatining dastlabki bosqichlarini anglash uchun falsafiy asos vazifasini bajargan.

Miloddan avvalgi II ming yillikda paydo bo'lib, keyinchalik Ahamoniylar va Sosoniylar imperiyalari davrida rasmiy e'tiqod sifatida shakllangan zardushtiylik inson salomatligi, kasallik va

SIYOSAT

shifo masalalariga chuqur ta'sir ko'rsatgan kosmologik va axloqiy tizimni yaratdi. Uning muqaddas matni - "Avesto" diniy va tibbiy bilimlar uyg'unligining o'ziga xos ensiklopediyasi bo'lib, unda marosimiy poklik, giyohlar ilmi va ruhiy intizom bir-biri bilan uzviy bog'langan.

Zardushtiy kosmologiyaning markazida Axura Mazda (nur, adolat va ezgulik xudosi) va Anxra Manyu (Axriman - yovuzlik va halokat ruhi) o'rtasidagi abadiy kurash g'oyasi yotadi. Bu qarashga ko'ra, kasallik - yovuz kuchlarning inson tanasiga, ruhiga va tabiatga kiritgan noturg'unligi, muvozanat buzilishining belgisi sifatida talqin etilgan. Shu bois, davolanish nafaqat jismoniy jarayon, balki koinotdagi muvozanatni tiklashga qaratilgan ma'naviy amal sifatida tushunilgan.

"Avesto"ning "Vandidod" deb nomlangan bo'limida gigiyena, poklik, suv va olovga munosabat, marosimiy tozalanish kabi ko'plab tibbiy-falsafiy ko'rsatmalar bayon etilgan. Masalan, u erda suv va olovni ifloslantirish qat'iy man etiladi - bu ikki unsur salomatlik va hayotning ilohiy manbai sifatida muqaddas sanaladi. Zardushtiylikda inson salomatligi Axura Mazda yaratgan to'rt unsur - suv, er, havo va olovning pokligini saqlashga bog'liq deb qaralgan. Ularni ifloslantirish nafaqat jismoniy zarar, balki ma'naviy gunoh deb hisoblangan.

Zardushtiy davolash amaliyotida muqaddas so'zlar (mantralar), giyohlar va qo'l muolajalari keng qo'llanilgan. "Vandidod"da bu uch yo'nalish - so'z bilan, o'simlik bilan va qo'l bilan davolash tibbiyotning asosiy bosqichlari sifatida tasniflangan. Bu holat qadimiy dunyo tibbiyotining hayratlanarli darajada tizimlashtirilganligidan dalolat beradi. Giyohlar Axura Mazdaning in'omlari deb qaralgan; xaoma o'simligi esa marosimiy ichimlik va tibbiy vosita sifatida ishlatilgan. U tanani tozalovchi, ruhni mustahkamlovchi va hayotiy kuchni oshiruvchi muqaddas ne'mat deb e'tirof etilgan.

Zardushtiylikda tabobat va axloq o'zaro ajralmas hodisalar edi. Tabib "asha" - ya'ni haqiqat, adolat va tartib tamoyillariga qat'iy amal qilishi lozim bo'lgan. Nodon yoki insofsiz tabib kasallikdan ko'ra ko'proq zarar etkazadi, degan ogohlantirish "Avesto"da qayd etilgan. Shu sababli, tabib shaxsiy poklik, rostgo'ylik va rahm-shafqatni o'z kasbining muqaddas sharti deb bilgan. Tibbiyot bu davrda ilohiy xizmat, ezgulik yo'lida amalga oshirilgan ibodat sifatida qaralgan.

Zardushtiy xalq tabobatining yana bir xususiyati - jamoaviylik edi. Davolanish jarayonida nafaqat tabib, balki bemorning oila a'zolari va jamiyat a'zolari ham qatnashgan. Poklanish marosimlari, duolar, muqaddas suvdan foydalanish sog'lomlikni umumiy qadriyat sifatida namoyon etgan. Kasallik shaxsiy muammo emas, balki jamiyat pokligiga tahdid deb qaralgan. Shu sababli, gigiyenaga oid qat'iy diniy qoidalar ishlab chiqilgan.

Masalan, zardushtiylar jasadni tuproq, suv va olovdan uzoqda, "Sukunat minoralari" (dahmalar) deb ataluvchi maxsus inshootlarda saqlashgan. Bu, garchi diniy talqin asosida bo'lsa-da, sanitar-gigiyenik fikrning dastlabki shakli sifatida e'tirof etiladi.

Shunday qilib, zardushtiylik xalq tabobati diniy, axloqiy va empirik tajribaning uyg'unlashgan tizimidir. Unda sog'liqni saqlash, poklik va axloqiy komillik bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Bu tizim keyinchalik islom tibbiyotining shakllanishiga bevosita zamin yaratgan bo'lib, Ibn Sino, Beruniy va boshqa musulmon mutafakkirlar asarlarida o'z aksini topgan. Shu tarzda zardushtiylik va islom tabobati o'rtasida falsafiy va ma'naviy uzluksizlik mavjud bo'lib, bu inson salomatligi va ruhiy poklanish g'oyalarining tarixiy davomiyligini ifodalaydi.

Qadimdan beri inson salomatligi, ruhiy poklik va axloqiy kamolot masalalari diniy an'analar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib kelgan. Zardushtiylik davrida tabobat nafaqat kasallikni davolash, balki yovuz kuchlardan poklanish, ma'naviy tozalanish va ezgulikni mustahkamlash vositasi sifatida qaralgan. "Avesto"dagi o't va suv orqali poklanish, duo o'qish, muqaddas giyohlar bilan davolanish singari marosimlar diniy-falsafiy mazmun kasb etgan. Bu amaliyotlar vaqt o'tishi bilan xalq tabobati shaklida yashab qolgan va O'rta Osiyo, Eron hamda keyinchalik islomiy tibbiyotga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Islom davrining kirib kelishi bilan sog'lomlik haqidagi qarashlar yangi diniy-falsafiy asosga ega bo'ldi. Qur'onda salomatlik Allohning in'omi, kasallik esa inson uchun sinov va poklanish vositasi sifatida talqin qilindi. "Men kasal bo'lsam, U menga shifo beradi" degan oyat [Qur'on, 26:80] sog'liqni ilohiy marhamat sifatida anglash zaruratini ta'kidlaydi. Shu asosda Qur'on oyatlari va Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning amaliyotlari - tibb an-nabaviy - xalq tabobatining asosiy ma'naviy tayanchiga aylandi.

Payg'ambar tabobatida asal, sedana, zaytun moyi, xurmo va sirka kabi tabiiy mahsulotlardan foydalanish tavsiya etilgan. Bu moddalarning har biri inson tanasi va ruhini bir butun holatda davolash g'oyasiga xizmat qilgan. Shuningdek, ruqya (duo o'qish), hijoma, tozalik, halol ovqatlanish

va gigiyenaga rioya qilish amallari orqali sog'lom turmush tarzi targ'ib etilgan. Shu tariqa, islom tibbiyoti nafaqat jismoniy dardni davolash, balki axloqiy poklanish va ruhiy muvozanatni ta'minlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

IX–XII asrlar oralig'ida islom sivilizatsiyasi tibbiyot ilmda yuksak cho'qqilarga ko'tarildi. Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, al-Farobiy kabi mutafakkirlar yunon, fors va hind tibbiy an'alarini islom falsafasi va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirdilar. Ayniqsa, Ibn Sinoning "al-Qonun fi al-Tibb" asari empirik tajriba, mantiqiy tahlil va axloqiy mas'uliyatni bir butun ilmiy tizimga aylantirdi. U tibbiyotga nafaqat ilmiy, balki falsafiy va ruhiy yondashuvni olib kirdi.

Zardushtiylikdagi tozalik va poklik tamoyillari, o'simliklar bilan davolash, suv va olov orqali ruhiy poklanish g'oyalari islom tabobatida yangicha diniy mazmunda davom etdi. Masalan, Qur'on tilovati, isiriq tutatish, dorivor giyohlar ishlatish, ta'vizlar taqish kabi amaliyotlar qadimgi diniy marosimlarning islomiy shakllari sifatida qayta talqin qilindi. Bu esa xalq tabobatining diniy mazmunini yanada boyitdi va uni ma'naviy tizim sifatida mustahkamladi.

Yunon tibbiy merosining islom ilm-faniga kirib kelishi esa diniy-falsafiy tibbiy tafakkurga yangi ilmiy ruh bag'ishladi. Ibn Sino, ar-Roziy va al-Farobiy singari allomalar Gippokrat va Galenning nazariyalarini Qur'on va hadis tamoyillari bilan uyg'unlashtirib, insonni "jismoniy va ruhiy muvozanatga ega mavjudot" sifatida talqin etdilar. Shunday qilib, sog'liq - tan, ruh va axloq birligida - iymon bilan bog'liq falsafiy kategoriya sifatida qaralgan.

Xalq tabobati esa bu ilmiy yutuqlar bilan yonma-yon yashab, diniy an'alar asosida o'zining moslashuvchanligini saqlab qoldi. Dorivor o'simliklardan foydalanish, duo o'qish, Qur'on qiroati, afsun va tumorlar - bularning barchasi qadimiy e'tiqodlar va islomiy qadriyatlarning uyg'unlashgan ifodasidir. Ushbu amaliyotlar bugungi kungacha xalq orasida saqlanib kelayotgani, diniy va tibbiy an'alar o'rtasidagi uzviylikning kuchligini ko'rsatadi.

XULOSA

Qadimdan beri insoniyat o'z hayoti, salomatligi va ma'naviy dunyosini uyg'un holda asrab-avaylashga intilib kelgan. Shu jarayonda diniy an'alar bilan xalq tabobati o'rtasida uzviy bog'liqlik vujudga kelgan bo'lib, u inson tabiatining jismoniy va ruhiy muvozanatini ta'minlashga xizmat qilgan. Zardushtiylik davridan boshlab inson salomatligi, poklik, muvozanat, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash masalalari diniy-falsafiy qarashlar markazida turgan. Keyinchalik islom dini kirib kelgach, bu qadimiy an'alar yanada mukammallashib, Qur'on va hadislar asosida ilmiy asos kasb etdi.

Islom davri olimlari - Ibn Sino, Beruniy, Roziy kabi mutafakkirlar qadimgi tabobat tajribalarini diniy va falsafiy bilimlar bilan uyg'unlashtirib, inson salomatligi, tan va ruh pokligi, tabiat bilan uyg'un yashash masalalarini ilmiy darajaga ko'tardilar. Shu tariqa, diniy an'alar va xalq tabobati o'rtasidagi uzviy rivoj inson tafakkurining, ma'naviy va ilmiy dunyoqarashining pishib borish jarayonini ifodalaydi.

Bugungi kunda ham qadimiy diniy-falsafiy qarashlar va xalq tabobati an'alarini zamonaviy tibbiyot va ijtimoiy hayotda o'z aksini topmoqda. Ular nafaqat tarixiy meros, balki insoniyatning sog'lom, ma'naviy barkamol va uyg'un jamiyat qurishga bo'lgan intilishining timsolidir. Shu bois, diniy an'alar va xalq tabobati uyg'unligi insonni jismoniy, ruhiy va axloqiy jihatdan komillikka eltuvchi muhim omil sifatida o'rganilishi, saqlanishi va rivojlantirilishi zarurdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boyce M. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. – London: Routledge & Kegan Paul, 1987. – 252 p.
2. Dhalla, M.N. History of Zoroastrianism. – N.Y.: Oxford University Press, 1938. – 436 p.
3. Gutas D. Avicenna and the Aristotelian Tradition. – Leiden: Brill, 2001. – 470 p.
4. Ar-Roziy. *Kitāb al-Hāwī fī al-tibb* (al-Jāmi' al-Kabīr). – B.: Dār al-Kutub al-Ilmiyya, 2000. – 1248 p.
5. Ibn Sino. *Al-Qānūn fī al-tibb*. – B.: Dār al-Kutub al-Ilmiyya, 1999. – 1560 p.
6. Юлдашева Л. С., Абдураимов, Ж. ИБН СИНОНИНГ ФАЛСАФИЙ АСАРЛАРИДА ИНСОН КАМОЛОТИ // Международный научный журнал Бируни. 2024. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ibn-sinoning-falsafiy-asarlarida-inson-kamoloti> (дата обращения: 03.10.2025).
7. Yuldasheva L.S. (2024). LIFE GIVEN TO PEOPLE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (2), 678-682.
8. Pormann, P.E., Savage-Smith, E. Medieval Islamic Medicine. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2007. – 282 p.
9. Rahman F. Health and Medicine in the Islamic Tradition. – N.Y.: Crossroad, 1987. – 220 p.
10. Юлдашева Лола Садуллаевна ЛОГИЧЕСКОЕ УЧЕНИЕ АБУ АЛИ ИБН СИНА // Международный научный журнал Бируни. 2023. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/logic-teaching-of-abu-ali-ibn-sina> (дата обращения: 03.10.2025).